

PhD, dotsent Hasan Axmedov

Toshkent moliya instituti

DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini o'rganishda davlat ishtirokidagi korxonalar, ularning faoliyatida moliyaviy rejalashtirish orqali faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha turli olimlarning fikrlari o'rganilgan. Milliy amaliyotda davlat ishtirokidagi korxonalarining faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar hamda xususiylashtirilishi rejalashtirilgan davlat ishtirokidagi korxonalar tahlil qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida tegishli xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: davlat ishtirokidagi korxonalar, davlat ulushi, moliyaviy rejalashtirish, aksiyador, ustav kapital, aksiya, emissiya.

INCREASING THE EFFICIENCY OF STATE-OWNED COMPANIES

Abstract. This article studies the opinions of various scientists on increasing the efficiency of state-owned companies and their activities through financial planning in the study of issues of increasing the efficiency of state-owned companies. In the national practice, measures implemented to increase the efficiency of state-owned companies and state-owned companies that are planned to be privatized have been analyzed. Based on the performed analysis, appropriate conclusions and proposals are developed.

Keywords: state-owned companies, state share, financial planning, stockholder, authorized capital, stock, issue.

Kirish

Iqtisodiyotni rivojlantirish har bir mamlakat oldidagi ustuvor vazifa bo'lib, mazkur jarayonda davlat tomonidan turli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda moliyaviy richaglardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi. O'zbekiston singari rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda davlat ishtirokining keskin yuqori ekanligi iqtisodiyotga salbiy ta'sir qilmoqda. Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarida foydani taqsimlash mexanizmlarining samarali emasligi, dividend siyosatining qoniqarli emasligi, korporativ boshqaruvga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi, kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilish mexanizmlarining shakllanmaganligi kabilar shular jumlasidandir. Qolaversa,

davlat ishtirokidagi korxonalar ko'pligi bois kapital bozorida raqobatning yetishmasligi, qimmatli qog'ozlar sotib olishga bo'lgan talabning pastligi, investitsion jozibadorlikka ega moliyaviy instrumentlar taklifining kamligi kabi salbiy holatlar yuzga kelgan. Shu boisdan davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro darajadagi izlanishlarni o'rganish asosida ta'kidlash mumkinki, davlat ishtirokidagi korxonalarda faoliyat samaradorligini oshirish, mazkur jarayonda moliyaviy rejalashtirish, umuman, moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotida muhim hisoblanadi.

A.Kovalyovning fikricha, "rejalashtirish aniq maqsadli mexanizmlar ishlab chiqish va qabul qilish hamda ishlab chiqilgan mexanizmlar muvaffaqiyatiga erishishning eng samarali yo'llarini aniqlash jarayonini o'zida aks ettiradi. Qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan bu mexanizmlar yaxlit ko'rinishda mazkur boshqaruv darajasi kutayotgan istiqbolni xarakterlaydi va ular uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ko'rsatkichlar tizimini aks ettiradi" [1]. Davlat ishtirokidagi korxonalarda samaradorlikni oshirishda moliyaviy rejalashtirish ham uhim ahamiyatga ega.

Korxonalarda "moliyaviy rejalashtirish bir tomondan moliyaviy resurslarni jalb qilish, taqsimlash va foydalanish jarayonini boshqarishga qaratilgan moliyaviy faoliyatni amalga oshirishning muhim yo'nalishi, ikkinchi tomondan esa moliyaviy rejalashtirish korxonada umumiy moliyaviy munosabatlar tizimining muhim qismi sifatida barcha rejalar bilan uzviy bog'liq" [2]. Shu boisdan korxonalarda moliyaviy rejalashtirish orqali faoliyat samaradorligini oshirish mumkin.

L.Pavlova ta'kidlashicha, "moliyaviy rejalashtirish korxonada, uning bo'linmasi yoki alohida loyiha doirasida moliyaviy resurslar hajmi va ularni taqsimlash o'rtasidagi balanslilikni ta'minlash jarayonidir. Moliyaviy rejalashtirish obyekt sifatida moliyaviy resurslar, xususan, jami foyda yuzaga keladi" [3]. Davlat ishtirokidagi korxonalarda moliyaviy resurslar hajmini oshirishda moliyaviy rejalashtirish doirasida aksiyalarni xususiylashtirish masalalari ham inobatga olinishi zarur.

A.Abramov va boshqalar ta'kidlashicha, "xususiy korxonalar va davlat ishtirokidagi korxonalar o'rtasidagi samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni bartaraf etish uchun bevosita va bilvosita davlatga tegishli bo'lgan korxonalar aksiyalarini xususiylashtirish maqsadga muvofiqdir" [4]. Bundan ko'rinadiki, davlat ishtirokidagi korxonalarda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlarini o'tkazishga e'tibor qaratish lozim. Chunki mazkur amaliyotlar orqali iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirishga e'tibor qaratish lozim.

Ch. Lu va Y.Niular “davlatga qarashli korxonalarda xodimlarning ish haqini oshirish xodimlarning o‘rtacha ish haqiga nisbatan taqqoslash natijalariga bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa rag‘batlantiruvchi rol o‘ynamaydi. Shu sababli kelgusida ish haqini isloh qilishda, shuningdek, davlat korxonalarining ishlab chiqarish va faoliyat samaradorligini oshirishda institutsional yordam ko‘rsatilishi zarur” [5], deya qayd etgan.

K. Szarzec va boshqalar fikricha, “davlat korxonalarining iqtisodiy o‘shishga ta’siri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, bu ichki ijtimoiy-iqtisodiy muhitni o‘zida aks ettiradigan institutsional sifat darajasiga bog‘liq: davlat korxonalarida institutsional muhit qanchalik yaxshi bo‘lsa, davlat korxonalarining umumiy samaradorligi shunchalik yuqori bo‘ladi” [6]. Shu bois davlat korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirish muhim masala hisoblanadi.

“Davlat korxonalari ko‘pgina mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Siyosiy sabablar yoki amaldagi vaziyatlarga ko‘ra ushbu korxonalarining ba’zilar to‘liq davlat mulki bo‘lib qolishi mumkin. Bunday korxonalarda aksiyalar sotuvining yo‘qligi real bozorga asoslangan baholash qiymatini yuzaga kelishiga to‘sqinlik qiladi. To‘liq davlat egaligidagi korxonalar, ayniqsa, konchilik va bank sohasidagi davlat korxonalarining hisobdorligi va samaradorligini ta’minlash uchun yangi vositalar va mexanizmlarni ishlab chiqilishi zarur” [7]. Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyat samaradorligini oshirishda korxonalar faoliyat ko‘rsatadigan tarmoq xususiyatini ham inobatga olish shart.

S. Elmirzayev davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni samarali yo‘lga qo‘yish masalalariga to‘xtalib o‘tgan bo‘lib, unga ko‘ra “davlat ulushi bilan birga mahalliy hokimiyatlar ulushini ham strategik ahamiyatga ega yirik korporativ tuzilmalar ustav kapitaliga kiritish orqali davlat ishtirokini ta’minlash amaliyoti xorijiy mamlakatlarda keng qo‘llaniladi” [8]. Demak, strategik muhim ahamiyatga ega korxonalarda davlat ishtirokini saqlab qolish lozim.

“O‘zbekistonda banklar innovatsion mahsulotlarini keng joriy qilinishi tendensiyalari va muammolari davlatning innovatsion rivojlantirish strategiyasi bilan belgilangan bo‘lsa-da” [9], davlat korxonalari sifatida davlat ishtirokidagi tijorat banklari faoliyatida innovatsion bank mahsulotlarini keng joriy qilish investitsion jozibadorlikni oshirishga yordam beradi. Natijada, davlat ishtirokidagi tijorat banklarida investitsion jozibadorlikni oshirish orqali yuqori hajmdagi arzon kapitalni jalb qilish hamda samarali xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish mumkin.

S.Omonov va B.Ochilovlar davlat ishtirokidagi korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish orqali mazkur korxonalar faoliyati bo‘yicha ijobiy samaradorlikka erishish mumkinligini qayd etgan. “Investitsion jozibadorlikni oshirishda mahalliy qimmatli qog‘ozlar bozorining ham o‘rni borligini ta’kidlashimiz lozim. Mahalliy qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilari tomonidan

xorijiy investorlarga qimmatli qogʻozlarning sotilishi mamlakatga investitsiya kirib kelishini taʼminlaydi va investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi” [10].

Davlat ishtirokidagi korxonalarda “biznesni kengaytirish, istiqbolli loyihalarni amaliyotga tatbiq etish, faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni qoʻllash kabi masalalarni ijobiy hal etishda moliyaviy resurslarga ehtiyoj seziladi. Ushbu ehtiyojlarni qondirishda davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan kapital jalb qilinishi zarur” [11]. Mazkur jihat davlat ishtirokidagi korxonalarda xususiylashtirish amaliyotlarini muvaffaqiyatli oʻtkazishda qoʻl keladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda taʼkidlash lozimki, davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv, innovatsion faoliyat, investitsion faoliyat, moliyaviy rejalashtirish kabilarni samarali tashkil etish orqali mazkur korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirish hamda qimmatli qogʻozlar orqali xususiylashtirish jarayonida katta hajmda kapital jalb qilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini oʻrganishda analiz, sintez, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish mamlakat iqtisodiyotini oʻsishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Oʻzbekiston singari rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiyot ishtirokchilarining aksariyati davlat ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi. Xususan, 2023-yil noyabr holatiga koʻra aksiya egalari tuzilmasida davlat ulushi 84,6 foizni tashkil etganligini kuzatish mumkin [12]. Shu boisdan iqtisodiyotda davlat ishtirokidagi korxonalarini xususiylashtirish maqsadida bitta aksiya-bitta lot tamoyili asosida xalqa IPOlarini oʻtkazish tartibi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadvalda aksiya paketlari “bitta aksiya-bitta lot” tamoyili asosida mahalliy fond bozorida xalq IPOsini oʻtkazish tartibi asosida ommaviy savdolar orqali xususiylashtiriladigan korxonalar roʻyxatida 40 ta aksiyadorlik jamiyatlari aks ettirilgan. Mazkur aksiyadorlik jamiyatlari orasida eng yirik soliq toʻlovchilar sifatida eʼtirof etiladigan “Navoiy kon-metallurgiya kombinat” AJ, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJlardan tortib tijorat banklari, sugʻurta kompaniyalari kabi boshqa tarmoq vakillarigacha uchraydi.

1-jadval

Aksiya paketlari “bitta aksiya-bitta lot” tamoyili asosida mahalliy fond bozorida xalq IPOsini o‘tkazish tartibi asosida ommaviy savdolar orqali xususiyashtiriladigan korxonalar ro‘yxati [13]

T/r	Nomi	Davlat ulushi, foiz	Sotiladigan aksiyalar foiz	Sotiladigan aksiyalar dona
1.	“Navoiy KMK” AJ	100	2,0	300 000 000
2.	“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ	98,54	2,0	12 300 297
3.	“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ	84,4	2,0	9 330 978
4.	“UZBAT” AJ	2,6	2,6	641 747
5.	“O‘zbektelekom” AJ	96,57	2,0	5 746 211
6.	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	95,2	2,0	4 878 435 656
7.	“Asakabank” ATB	98,96	2,0	842 745 407
8.	AT “Xalq banki”	100	2,0	148 667 596
9.	“Qishloqqurilishbank” ATB	98,34	2,0	311 141 316
10.	“Aloqabank” ATB	66,6	2,0	223 319 146
11.	“Turonbank” ATB	98,77	2,0	17 460 499
12.	“Mikrokreditbank” ATB	98,9	2,0	66 429 463
13.	“Ipak yo‘li” ATB	0,0003	0,0003	192 888
14.	“Trastbank” ATB	0,001	0,001	598
15.	“Garantbank” ATB	0,01	0,01	294 396
16.	“O‘zbekinvest” EISK AJ	83,33	7,33	20 686 463
17.	“Alskom” AJ	3,9	3,9	1 137 311
18.	“O‘zagrosug‘urta” AJ*	94,5	2,0	664 617
19.	“O‘ztemiryo‘lkonteyner” AJ	90	4,0	134 651
20.	“Dori-darmon” AJ	36,1	20,0	4 014 400
21.	“O‘zbekiston Respublikasi Tovar-xomashyo birjasi” AJ*	26,4	2,0	1 499 168
22.	“O‘zbekgeofizika” AJ	96,8	2,0	23 240 292
23.	“Qurilishmashlizing” AJ	73,5	22,5	3 825 000
24.	“O‘zog‘irsanoatloyiha” AJ	81,7	5,7	671 238
25.	“Toshuyjoyliti” AJ	61,5	10,5	482 084
26.	“Tashgiprogor” AJ	41,8	15,8	85 673
27.	“Boshtransloyiha” AJ	32,1	6,1	271 556
28.	“Andijon biokimyoviy zavodi” AJ	96,0	20,0	2 541 782
29.	“O‘zbekneftgaz” AJ	99,94	2,0	849 738 934
30.	“Hududgazta‘minot” AJ	100	2,0	529 261 741
31.	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	99,99	2,0	3 993 422
32.	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ	100	2,0	1 040 462 222
33.	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	100	2,0	1 693 616 290
34.	“O‘zbekgidroenergo” AJ	100	2,0	146 221 337
35.	“Minora qurilish ekspeditsiyasi” AJ	37,1	11,1	3 588 800
36.	“Janubsanoatmontaj” AJ	20,7	20,7	337 653
37.	“Qo‘qon neftgaz parmalash ishlari” AJ	61,3	10,3	33 424 896
38.	“Ko‘prikqurilish” UK**	100	2,0	-
39.	“Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish” DUK**	100	10,0	-
40.	“Qimmatli qog‘ozlarning markaziy depozitariysi” DUK**	100	10,0	-

* Davlat ulushi ustun mavqega ega bo‘lgan xo‘jalik jamiyati ulushi sotiladi;

** Aksiyadorlik jamiyati sifatida qayta tashkil etilgandan so‘ng sotiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-283-son Qarori qabul qilingan bo‘lib, mazkur Qarorga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi 2023-yil 31-dekabrga qadar “UzAssets” investitsiya kompaniyasi bilan birgalikda kompaniya hamda uning boshqaruvidagi har bir korxonalar va tijorat bankining transformatsiyasiga konsultantlar jalb qilishi hamda ularni isloh qilish grafigini tasdiqlashi belgilangan. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari va konsultantlari bilan birgalikda yirik davlat korxonalarini va tijorat banklarini transformatsiya qilishning keyingi bosqichini amalga oshirishga, shu jumladan, zamonaviy operatsion modellarini joriy etishga qaratilgan qaror loyihasini ishlab chiqilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda “UzAssets” investitsiya kompaniyasining davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilish va boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilangan (1-rasm).



1-rasm. Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloh qilish va boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarini moliyalashtirish manbalari [14]

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi shakllantirilgan ro‘yxatga muvofiq tashkilotlar ustav kapitalidagi o‘ziga tegishli davlat aksiya paketlari bo‘yicha aksiyador vakolatlarini amalga oshirish va boshqarish funksiyalarini ishonchnoma asosida cheklanmagan muddatga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligiga berilishi belgilangan (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining davlat ulushi bo‘yicha aksiyador funksiyasi mavjud korxonalar ro‘yxati [14]

T/r	Tashkilot nomi	Ulushi, %
1.	“Agrobank” ATB	46,3
2.	“Asakabank” ATB	88,2
3.	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	82,1
4.	“Xalq banki” AT	78,5
5.	“Turonbank” ATB	90,1
6.	“Qishloqqurilishbank” ATB	23,9
7.	“Aloqabank” ATB	54,5
8.	“O‘zmilliy bank” AJ	59,3
9.	“Mikrokreditbank” ATB	28,2
10.	“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” AJ	37,0

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining davlat aksiya paketi (ulushi) bo‘yicha aksiyador (ishtirokchi) funksiyasi mavjud tashkilotlarga 10 davlat korxonalari kiritilgan bo‘lib, shundan 9 tasi tijorat banklari hamda 1 tasi O‘zbekiston metallurgiya kombinati AJ hisoblanadi (2-jadval).

3-jadval

2023-2025-yillarda isloh qilinadigan va operatsion samaradorligi oshiriladigan davlat ishtirokidagi yirik korxonalar ro‘yxati [15]

T/r	Korxonalar nomi	Amaldagi aksiyador (ta‘sischi, muassis)	Davlat ulushi, %
1.	“Navoiy KMK” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
2.	“Navoiyuran” DK	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	100,0
3.	“Olmaliq KMK” AJ	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	98,5
4.	“O‘zmetkombinat” AJ	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	81,1
5.	“O‘zbekneftgaz” AJ	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	99,9
6.	“O‘ztransgaz” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	99,5
7.	“Hududgazta‘minot” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
8.	“UzGasTrade” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
9.	“O‘zbekiston MET” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
10.	“Issiqlik elektr stansiyalari” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
11.	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
12.	“O‘zbekgidroenergo” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
13.	“O‘zkimyosanoat” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
14.	“Navoiyazot” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi, “O‘zkimyosanoat” AJ	100,0
15.	“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
16.	“Uzbekistan airways” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
17.	“Uzbekistan Airports” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0

T/r	Korxonalar nomi	Amaldagi aksiyador (ta'sischi, muassis)	Davlat ulushi, %
18.	“Toshshahartransxizmat” AJ	Transport vazirligi	100,0
19.	“O‘zavtosanoat” AJ	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	100,0
20.	“O‘zbektelekom” AJ	Raqamli texnologiyalar vazirligi	96,2
21.	“O‘zbekiston pochta” AJ	Raqamli texnologiyalar vazirligi	31,51
22.	“O‘zbekko‘mir” AJ	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	97,9
23.	“Agrobank” ATB	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	52,2
24.	“Asakabank” ATB	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	10,7
25.	“O‘zsanoatqurilishbank” ATB	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	13,1
26.	AT “Xalq banki”	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	22,4
27.	“Turonbank” ATB	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	8,7
28.	“Qishloqqurilishbank” ATB	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	74,5
29.	“Aloqabank” ATB	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	3,8
30.	“O‘zmilliy bank” ATB	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	40,7
31.	“Mikrokreditbank” ATB	Iqtisodiyot va moliya vazirligi	70,8

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son Qarori qabul qilingan bo‘lib, mazkur Qarorga muvofiq, 3-jadvalda 2023-2025-yillarda isloh qilinadigan va operatsion samaradorligi oshiriladigan davlat ishtirokidagi yirik korxonalar ro‘yxati berilgan.

Xulosa

Davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish masalalarini o‘rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirilgan.

davlat ishtirokidagi korxonalarda faoliyat samaradorligini oshirish, mazkur jarayonda moliyaviy rejalashtirish, umuman, moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi;

davlat ishtirokidagi korxonalar faoliyat samaradorligini oshirishda korxonalar faoliyat ko‘rsatadigan tarmoq xususiyatini ham inobatga olish shart. Chunki tarmoq xususiyati davlat ishtirokidagi korxonalarda faoliyat samaradorligini oshirishda muhim jihatlardan hisoblanadi;

davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv, innovatsion faoliyat, investitsion faoliyat, moliyaviy rejalashtirish kabilarni samarali tashkil etish orqali mazkur korxonalar investitsion jozibadorligini oshirish hamda qimmatli qog‘ozlar orqali xususiylashtirish jarayonida katta hajmda kapital jalb qilish imkoniyati yuzaga keladi;

xususi korxonalar va davlat ishtirokidagi korxonalar o‘rtasidagi samaradorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi farqni bartaraf etish uchun bevosita va bilvosita davlatga tegishli bo‘lgan korxonalar aksiyalarini xususiylashtirish maqsadga muvofiqdir. Bundan ko‘rinadiki, davlat ishtirokidagi korxonalarda aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotlarini o‘tkazish orqali davlat ulushini qisqartirishga e‘tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ковалёва А.М. Финансы. М. «Финансы и статистика», 2005. – 384ст
2. Под ред. Л.Г.Паштовой. Финансовое планирование в организациях. - М. —Кнорус, 2019. – 274 с. 19Stephen A.Ross, Randolph W.Westerfield, Bradford D.Jordan. Fundamentals of corporate finance. 10thed. USA: McGraw-Hill, 2013. – 824 p.
3. Павлова Л.Н. Финансовый менеджмент. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2003. – 270 ст
4. Alexander Abramov, Alexander Radygin, Maria Chernova. State-owned enterprises in the Russian market: Ownership structure and their role in the economy. // Russian Journal of Economics, Volume 3, Issue 1, March 2017, Pages 1-23;
5. Chuang Lu, Yuhao Niu. Do companies compare employees’ salaries? Evidence from stated-owned enterprise group. // China Journal of Accounting Research, Volume 15, Issue 3, September 2022. – p 20.
6. Katarzyna Szarzec, Ákos Dombi, Piotr Matuszak. State-owned enterprises and economic growth: Evidence from the post-Lehman period. // Economic Modelling, Volume 99, June 2021. –P.20;
7. Rodrigo Wagner. Can the market value state-owned enterprises without privatizing them? An application to natural resources companies. // Resources Policy, Volume 59, December 2018, Pages 282-290
8. S.E. Elmirezayev. Zamonaviy korporativ boshqaruv. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 416 b.
9. Абдурахимова Д. К. ИННОВАЦИОН БАНК МАҲСУЛОТЛАРИНИНГ ЖАҲОН ИҚТИСОДИЁТИ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ РОЛИ ВА УЛАРДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ТУРЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2023. – Т. 36. – №. 1. – С. 161-170.
10. Omonov S., Ochilov B. INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN ATTRACTING DIRECT FOREIGN INVESTMENT //International Finance and Accounting. – 2021. – Т. 2021. – №. 2. – С. 26.
11. Жўрабекович Қ. Ж. и др. Халқаро IPO амалиётлари таҳлили: ташкилий хусусиятлари ва институционал инвесторлар иштироки //Экономика и финансы (Узбекистан). – 2021. – №. 1 (137). – С. 53-61.
12. <https://uzcsd.uz/statisticalInformation> - O‘zbekiston Respublikasi Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi rasmiy sayti ma’lumotlari
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-102-son Qarori, 24.03.2023. 1a-ilova. <https://lex.uz/docs/-6417192>



14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 18-avgustdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-283-son Qarorining 1-ilova. <https://lex.uz/docs/-6576274>

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-martdagi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6396140>